



## TURKISTONDA EPIDEMIYALAR VA ULARGA QARSHI KURASH

G‘ulom Xamitovich Karomov

Axborot texnologiyalar va menejment universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada epidemiyalarning kelib chiqishida aholi maishiy turmush sharoitining qoniqarsiz holati asosiy omil ekanligi yuzasidan xulosa chiqariladi. Insoniyat tarixida epidemiyalar aholi uchun haqiqiy ofat bo‘lib, urushlar, tabiiy shart-sharoitlar, qurg‘oqchilik, ocharchilik kabi omillarning uning yo‘ldoshi bo‘lganligi asoslanadi

Tadqiqotdan olingan natijalardan kelib chiqqan holda, har bir davlatda epidemiyalarning oldini olishning eng asosiy omili aholi turmush sharoitini yaxshilash va sanitariya maorifini kuchaytirishni e’tirof etish lozimligi bo‘yicha xulosalar chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:** insoniyat, epidemiyasi, aholi, kasallik, yuqumli, tibbiyot, Turkiston, Buxoro, Xorazm, bezgak, vabo, xalq, respublika, ijtimoiy, iqtisodiy, hayot, sog‘liqni saqlash, ambulatoriya, shifoxona, shifokor.

**Аннотация:** В статье делается вывод о том что основным фактором возникновения эпидемий являются неудовлетворительные условия жизни населения. В истории человечества эпидемии были настоящий катастрофой для населения, основанной на факте, что его спутниками являются войны, природные условия, засухи, голод и другие факторы.

Основываясь на результатах, полученных в исследованиях, это является наиболее важным фактором в профилактике эпидемий в каждом государстве, необходимо сделать вывод о необходимости улучшения условий жизни населения признать необходимость укрепления санитарного просвещения.

**Ключевые слова:** человечество, эпидемия, население, болезнь, инфекционных, медицина, Туркестан, Бухара, Хорезм, малярия, холера, люди, республика, социального, экономический, жизнь, здравоохранение, амбулатория, больница, врач.

**Annotation:** The article concludes that the main factor in the origin of epidemics is the unsatisfactory living conditions of the population. In the history of mankind, epidemics have been a real disaster for the population, based on the fact that wars, natural conditions, droughts, famines and other factors are its companions.

Based on the results obtained in the studies, it is the most important factor in the prevention of epidemics in each state conclusions should be drawn on the need to improve the living conditions of the population and recognize the need to strengthen sanitary education.

**Key words:** humanity, epidemic, population, disease, contagious, medicine, Turkestan, Bukhara, Khorezm, malaria, plague, people, republic, social, economic, life, healthcare, outpatient, hospital, doctor

Insoniyat turli tarixiy davrlarda aholi orasida tarqalgan turli epidemiyalardan kuchli aziyat chekib kelgan. “Epidemiya” so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, yoppasiga kasallanish degan ma’noni anglatadi. Bu haqidagi dastlabki ma’lumotlar miloddan avvalgi III ming yilliklarga to‘g‘ri keladi. Yunon tarixchisi Fukididning ma’lumot berishicha yunon madaniyatining inqiroziga milloddan avvalgi 435-430 yillarda Afinada tarqalgan epidemiya sabab bo‘lgan ekan.





Tarixda “Юстинианова чума” nomi bilan qolgan 551-580 yillarda yuz bergan epidemiya Sharqiy Rim imperiyasida paydo bo‘lib, butun Yaqin Sharq hududiga tarqalgan va 100 millionga yaqin aholining hayotiga zomin bo‘lgan. 1346-1353 yillarda Yevropada “Qora o‘lim” nomi bilan tarqalgan epidemiyada 50 mlndan ziyod kishi qurbon bo‘ladi. Birinchi jahon urushidan so‘ng “Ispan grippi” (ispanka) epidemiyasidan 550 millionga yaqin aholi qirilib ketadi\_.

O‘rta Osiyo aholisi ham azaldan epidemiyalardan aziyat chekib kelgan. Ayniqsa, issiq iqlim sharoitidan kelib chiqib, tez-tez vabo tarqalgan. Masalan, Turkiston o‘lkasi uchun bezgak yuqumli kasalligi chinakam ofatlardan biri bo‘lib, bu kasallik epidemiysi tez-tez takrorlanib turgan. 1881 yil Yangi Marg‘ilonda, 1894 yil Toshkent uyezdida bezgak epidemiysi yuz berib, To‘ytepada 35 foiz aholi qirilib ketgan. Butun oilalar shu kasallik tufayli hayotdan ko‘z yumgan. Shuning uchun O‘rta Osiyo aholisi tozalikka katta e’tibor qaratib, qadimgi davrlardan epidemiyaga qarshi kurash tadbirlarini olib borgan. Xususan, sovet davlatida ham bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi.

Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida ham sog‘liqni saqlash sohasini yo‘lga qo‘yish tadbirlari sanitariya-epidemiya ishlari bilan birgalikda olib borildi. Bu davrda o‘ta murakkab tarixiy shart-sharoitlar hukm so‘rib, mamlakatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar keskinlashganligi, aholi maishiy turmush sharoiti nihoyat qashshoqlashganligi, fuqarolar urushi, tabiiy ofatlar tufayli qurg‘oqchilik va buning oqibatida xalq orasida ocharchilik avj olishi bilan xarakterlanadi.

Sovet davlati aholi orasida yuqumli kasalliklar va epidemiylar tarqalishini oldini olish maqsadida “Ich terlama kasalligiga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Respublikada sanitariya ahvolini yaxshilash bo‘yicha maxsus komissiya tuzish to‘g‘risida”gi dekretlarini qabul qilgan.

Turkistonda epidemiylarga qarshi kurashda sog‘liqni saqlash sohasining yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1918 yil Turkiston viloyatlarida ham sog‘liqni saqlash bo‘limlari tashkil etilib, ular zimmasiga joylarda tibbiy xizmat tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish, profilaktika va sanitariya maorifi ishlarini olib borish, epidemiyalarning oldini olish va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini uyshtirish





kabi vazifalar topshirildi. Turkistonda harbiy-sanitariya boshqarmasini tuzish tadbirlari ham olib borildi<sup>7</sup>.

Turkiston ASSRda shahar sanitariya holatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlarni olib bordi. Toshkent shahrida birinchi marta sanitariya inspektori lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga shahar sanitariyasi ustidan nazorat o‘rnatish vazifasi yuklatildi. Inspektor umumiy sanitariya, sanoat sanitariyasi, oziq-ovqat sanitariyasi nazoratini amalga oshirdi<sup>8</sup>. Buxoro shahrida ham sanitariya nazoratini kuchaytirish maqsadida sanitariya inspektori lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga aholi turar-joylari va toza ichimlik suvi ta’minoti ustidan nazorat o‘rnatish va sharoitni yaxshilash yuzasidan tadbirlar olib borish, sanitariya statistikasini yuritish, turli epidemiyalarning oldini olish yuzasidan choralar qo’llash, shahar va qishloq qurilishlari rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish, sanitariya qoidalarini ishlab chiqish, aholi orasida sanitariya maorifi ishlarini yo‘lga qo‘yish, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarini qayd etib borish kabi vazifalar topshirildi<sup>9</sup>.

O‘rta Osiyo respublikalarida bu davrdagi noqulay ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy nochorlik sog‘liqni saqlash ishlarini keng ko‘lamda tashkil etishga to‘sqinlik qildi. O‘lka shaharlarining sanitariya holatining yomon ahvoldaligi, shahar ko‘chalari tor va iflosligi, axlatlar har joyga tashlanganligi, ichimlik suvi tanqisligi, aholi turli ochiq suv havzalaridan foydalanishi kabi omillar tufayli turli yuqumli kasalliklar tarqalib, epidemiyalarga aylanishi sabab bo‘ldi<sup>10</sup>. Masalan, eski Buxoro shahri sanitariya vrachi axborotida quyidagi ma’lumotlar qayd etiladi: “...shahar aholisining barchasi ochiq hovuzlardan suv iste’mol qiladi. Hovuzlardagi suv bir necha kunlab almashtirilmaydi, ularga qo‘l-oyoqlar, idishlar botirib olinadi. Shahardagi oqar ariqlar yaqiniga hojatxonalarning joylashtirilishi ham uchrab turadi”<sup>11</sup>.

Ayniqsa shaharlarda chiqindi uyumlari o‘zida turli mikroblarni to‘plab, zaharli havoni atrofga tarqatadi. Bu davrda shaharlarda chiqindilar tashlanadigan axlatxonalar mavjud emas edi. Shu bois, sog‘liqni saqlash sohasida belgilangan samaraga erishilmadi. Natijada shaharlarning sanitariya holati yomonlashib, qishloqlarda turli

<sup>7</sup>O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 11-varaq.

<sup>8</sup>O‘zRMDA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 77-yig‘ma jild, 41-varaqning orqasi.

<sup>9</sup>O‘zR MDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 12-varaq.

<sup>10</sup>O‘zRMDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 3-17-varaqlar.

<sup>11</sup>O‘zRMDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 1-varaq.





epidemiyalarning tarqalishi jarayoni tez-tez yuz berdi<sup>12</sup>. Shaharlar chechak, bezgak kabi kasalliklar epidemiyasining markazi aylandi.

Epidemiyalarga qarshi kurash maqsadida tez-tez davolash-sanitariya otryadlari tashkil etildi. 1920 yilning oxirida Turkistonga epidemiyaga qarshi 19 kishidan iborat otryad yuborildi. Bu otryad asosan chechakka qarshi tadbirlarda ishtirok etdi. 1920 yili Andijon uyezdiga davolash-sanitariya otryadi yuborildi<sup>13</sup>.

Shuningdek, 1921 yil avgustda Buxoroda Rossiya gelmintalogiya ekspeditsiyasi K.I. Skryabin rahbarligida yuborildi. 1922 yili esa Moskva tropik institutidan bir guruh mutaxassislar keldi<sup>14</sup>.

1921 yil 11 fevralda Turkiston Respublikasi hukumatining “Об обязательном оспопрививании в республике” nomli 31-sonli qarori e’lon qilindi. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida barcha uyezd, viloyatlarda chora-tadbirlar olib borildi. Amudaryo viloyatida bezgakga qarshi kurash komissiyasi tashkil etilib, uning tarkibiga sog‘liqni saqlash, yer va suv xo‘jaligi xodimlari kiritildi<sup>15</sup>.

Turkiston ASSR sog‘liqni saqlash xalq komissarligi epidemiyaga qarshi kurashga o‘lka Mikrobiologiya laboratoriyasini ham jalg etdi. Bu laboratoriyada bryushnay tif, cholera, ospa, difteriyaga qarshi vaksinalar tayyorlandi. Mikrobiologiya laboratoriyasi o‘lkada aholiga turli epidemiylar haqida tushuncha berish, bakteriologiya bo‘yicha kadrlar taylorlash ishlarini ham olib bordi<sup>16</sup>.

Turkiston ASSR sog‘liqni saqlash xalq komissarligida “Tibbiy ta’lim va sanitariya maorifi” bo‘limi faoliyat ko‘rsatib, bo‘lim xodimlari tomonidan epidemiyaga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borildi. Masalan, mahalliy aholi tilida cholera haqida 10 ming nusxada ko‘rgazmali varaqlar tayyorlanib tarqatildi. Shuningdek, doktor Sinitsinaning “Tif kasalliga” risolasi 3 ming nusxasi, doktor

<sup>12</sup>История Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов. (1920-1924 гг.).-Т., 1976.-С. 420.

<sup>13</sup>O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 13-varaq.

<sup>14</sup>Махмудов М. М. Становление и развитие медицины и здравоохранения в Средней Азии (1867 – 1924 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук.- Ташкент, 1992. – С.36.

<sup>15</sup>Исмоилов О.И., Ешанов Т.Б., Бабаджанов А.С. Развитие здравоохранения в Республике Каракалпакстан (с 1870-х годов до наших дней) Нукус.: Билим. – 1997. – С. 26.

<sup>16</sup>O‘zR MDA, 13-fond, 1-ro‘yxat, 24-ish, 58-59-varaqlar.





Torinovskiyning “Холера, брюшной тиф ва ичбруғ” nomli risolasi 10 ming nusxada nashr etildi<sup>17</sup>.

Turkiston shaharlarida sanitariya maorifi o‘ylari tashkil etiladi. Masalan, 1923 yili Qo‘qon shahrida sanitariya maorifi uyi tashkil etilib, bu muassasa butun Farg‘ona viloyati miqyosida sanitariya maorifi targ‘iboti bilan shug‘ullandi<sup>18</sup>. Sanitariya maorifi o‘yi xodimlari hududlardagi sog‘liqni saqlash bo‘limlariga cholera tarqalgan sharoitida sanitariya chora-tadbirlari to‘g‘risidagi kursning dasturini tarqatdi. Dasturda sanitariya dezinfeksiyasi haqida tushunchalar berildi. Shuningdek, bezgakga qarshi epidemiya qarshi kurash targ‘ibot otryadlari tuzildi<sup>19</sup>.

Turkistonda epidemiyalar tarqalgan hududlarda bemorni joylashtirish uchun davolash maskanlari yetishmaganligi sababli, uyezd, viloyat hokimligi va turar-joy binolari bo‘shatib berildi. 1920 yil dorishunoslar yordamchisi va shafqat hamshiralari uchun o‘quv kurslari tashkil etildi. Toshkent eski va yangi shahrida yuqumli kasalliklar haqida aholiga ma’ruzalar o‘qildi. Sovet tibbiyoti asoslari, vabo, teritanosil kasalliklar haqida risola tayyorlanib aholi orasida tarqatildi<sup>20</sup>.

Shuningdek, Buxoro va Xorazm respublikalari aholisi orasida ham epidemiyaga qarshi tibbiy targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borib, shaharlarning sanitariya holatini yaxshilash yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Tibbiyot xodimlari joylarga borib kasallikning tarqalishi va uning oldini olish, tugatish bo‘yicha ma’ruzalar o‘qidi. Tibbiyot xodimlari Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada aholini qabul qilib, turli yuqumli kasalliklar va epidemiyalar haqida tushuncha berdilar. Shuningdek, turli yuqumli kasalliklar haqidagi ko‘rgazmalar namoyish etilib, “Bezgak”, “Vabo” kabi mavzularda risolalar tarqatildi<sup>21</sup>.

Ammo iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli sanitariya maorifi ishlari talab darajasida olib borilmadi. Masalan, BXSR va XXSR shahar va qishloqlariga turli xavfli yuqumli kasalliklar va uning oldini olish bo‘yicha bajarishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, epidemiya mohiyati, toza ichimlik suvi iste’moli va kasallanganlarni izolyatsiya qilish

<sup>17</sup>O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 3-16-varaqlar.

<sup>18</sup>O‘zRMADA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 303-yig‘ma jild, 18-varaqlar.

<sup>19</sup>O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 3-16-varaqlar.

<sup>20</sup>O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 6-8-varaqlar.

<sup>21</sup>O‘zRMADA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 3-varaqlar.





haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan tibbiy varaqlar tayyorlash va tarqatish ishi shaharda bosmaxonalar yetishmovchiligi tufayli amalga oshmadi<sup>22</sup>. Turkiston Respublikasi hukumatining aholini chechakka qarshi emlash to'g'risidagi ko'rsatmasi bo'lsada, amalda uning ijrosi ta'minlanmadi. Emlash ishlarini olib borish uchun tibbiyot xodimlari va dori vositalari yetishmadi. 1922 yili Chimboy va Shuraxon uyezdlarida 293 nafar kishi chechak bilan ro'yxatga olinib, shundan 125 nafar inson vafot etdi<sup>23</sup>. Bu faqat shifokorlarga murojat qilganlar hisobiga ro'yxatga olingan. Ammo agar bemorlarni qayd qilish va ro'yxatga olish ommaviy tarzda bo'lganida, kasallanganlar va vafot etganlarni soni ancha ko'p bo'lganini ko'rishimiz mumkin edi.

Kamchilliklarni bartaraf etish maqsadida respublikada epidemiyaga qarshi kurash tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga Turkiston va sog'liqni saqlash xalq komissarligi, Turkistonning sanitariya qismi, Toshkent shahar sog'liqni saqlash, kasaba uyushmasi markaziy kengash, xalq xo'jaligi markaziy kengashi, ichki ishlar komissarligidan bir nafardan vakil kiritildi. Komissiya a'zolari zimmasiga epidemiyaga qarshi kurashning tizimli rejasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Shu tariqa, Turkiston XKS va Turkfront Revvoyensovetining hamkorlikdagi harakati tufayli yagona epidemiologik statistik markaz shakllandi.

Aholi orasida chechak kasalligi to'g'risida ma'lumotlarni ko'proq targ'ib etish maqsadida chechak kasalligiga qarshi emlash ishlari bo'yicha qisqa mudatli kurslar tashkil etildi. Turkiston shahar va qishloqlarida chechakka qarshi emlash otryadlari tuzilib, ular tarkibiga 5 nafar kishi kiritildi. Aholi orasida yuqumli kasalliklar ommaviy tarqalgan sharoitda shifoxonalarda vaqtinchalik davolash o'rinnari ochildi. 1921 yili Samarqand viloyatida svinnoy tif bilan 1471 nafar, vozvratniy tif bilan 1443 nafar, zaxm 2005 nafar, traxoma bilan 1596 nafar, xolera 113, bezgak bilan 38846 nafar kishi ro'yxatga olindi<sup>24</sup>.

<sup>22</sup>История Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов.—С. 421.

<sup>23</sup>Исмоилов О.И., Ешанов Т.Б., Бабаджанов А.С. Развитие здравоохранения в Республике Каракалпакстан (с 1870-х годов до наших дней) Нукус.: Билим. – 1997. – С. 27.

<sup>24</sup>Арирова Т. У. Здравоохранения и здоровье населения Самаркандской области. Автореф. дисс. докт. мед. наук.- Ташкент: 1975.-С.14-20.





Turkistonda sanitariya-epidemiya sohasidagi ko‘rilgan chora-tadbirlar talab darajasida bo‘limganligi, qolaversa, aholi moddiy turmushidagi nochorlik tufayli o‘lkada turli yuqumli kasalliklar ko‘payib, tez-tez epidemiyalar tarqalib turdi. Masalan, 1920 yil oktabrda Buxoroda chechak va terlama kasalligi epidemiyasi tarqaldi<sup>25</sup>. Ushbu holat respublika sog‘liqni saqlash tizimi boshqaruvini kuchaytirish, sohaga ajratilgan mablag‘larni ko‘paytirish, qo‘srimcha tibbiy yordam ekspeditsiyalarini jalb etishni taqoza etdi. Sharoit hisobga olinib, 1920 yil 15 oktabrida Moskvadan Buxoroga vrach Sharikin rahbarligida 19 kishidan iborat epidemiya otryadi yuborildi<sup>26</sup>.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida O‘rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida tez-tez epidemiya o‘choqlari shakllanib, ko‘plab aholi punktlariga tarqaldi<sup>27</sup>. Masalan, 1921 yil O‘rta Osiyoning 29 ta aholi punktida vabo epidemiyasi yuz berib, 3315 kishi vabo bilan ro‘yxatga olingan va shundan 1179 tasi yoki 35 yoki 6 foizi vafot etgan<sup>28</sup>. 1922 yil may oyida esa Buxoroda vabo kasalligi tarqaldi. BXSR hukumati tomonidan epidemiyaga qarshi kurash maqsadida M.Saidjanov raisligida favqulodda sanitariya komissiyasi tuzilib, ularning xarajatlari uchun 1 milliard rubl ajratildi<sup>29</sup>.

Xullas, turli tarixiy davrlarda tarqalgan epidemiyalar insoniyat uchun to’mma’noda ofat bo‘lgan. Epidemiyalarning tarqalish tafsilotlarini o‘rganish natijasiga shunday xulosaga kelish mumkinki, bu avvalo aholi ijtimoiy-maishiy turmush sharoitining yomonlashuvi, issiq iqlim, urushlar tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy nochorlik, ocharchilik bilan chambarchas bog‘liq. O‘rta Osiyo respublikalari tarixan juda murakkab sharoitda yashab o‘tganligi bois, ulardagи turli aholi punktlari epidemiya o‘choqlariga aylandi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalarida aholi orasida turli yuqumli kasalliklarni tugatish va epidemiyalarning olidini olish tadbirlari kun tartibidagi dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Bunda ayniqsa epidemiyalarga qarshi kurash tibbiy otryadlar va ekspeditsiyalar faoliyati

<sup>25</sup>История Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов. (1920-1924 гг.).—Т., 1976.—С. 420.

<sup>26</sup>O‘zRMDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 108-109-varaqlar.

<sup>27</sup>К борьбе с эпидемия /Наша газета, 1918, 9 июня-№ 115; Мобилизация врачей /Наша газета. 1918. 12 июня-№ 117.

<sup>28</sup>Мухитдинов М, Хужаков А.Здравоохранение Андижанской области.– Ташкент: Медицина, 1985.—С. 19.

<sup>29</sup>Известия ЦК Компартии Бухары и Центрального Ревкома БХСР, 1922-№ 69, 22 июня.



tahsinga sazovordir. Epidemiyalarga qarshi kurash ishida sanitriya maorifini kuchaytirishga asosiy ommillardan biri sifatida qaraldi va bu borada muayyan natijalarga erishildi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Арипова Т.У. Здравоохранение и здоровье населения Самаркандской области. Автореф. дисс...канд. мед. наук.– Ташкент, 1975.– С.14.
2. И smoилов О.И., Ещанов Т.Б., Бабаджанов А.С. Развитие здравоохранения в Республике Каракалпакстан (с 1870-х годов до наших дней) Нукус.: Билим. – 1997. –Б. 26.
3. История Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов. (1920-1924 гг.). – Т., 1976.–С. 420.
4. Известия ЦК Компартии Бухары и Центрального Ревкома БХСР, 1922-№ 69, 22 июня.
5. К борьбе с эпидемия // Наша газета, 1918, 9 июня-№ 115;
6. Махмудов М. М. Становление и развитие медицины и здравоохранения в Средней Азии (1867 – 1924 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук.- Ташкент, 1992. – С.36.
7. *Мухитдинов М, Хужаков А.* Здравоохранение Андижанской области.– Ташкент: Медицина, 1985.–С. 19.
8. Мобилизация врачей //Наша газета. 1918. 12 июня-№ 117.
9. O‘zR MDA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 333-yig‘ma jild, 11-varaq.
10. O‘zR MDA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 77-yig‘ma jild, 41-varaqning orqasi.
11. O‘zR MDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 12-varaq.
12. O‘zRMDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 3-17-varaqlar.
13. O‘zRMDA, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘ma jild, 1-varaq.
14. O‘zR MDA, 13-fond, 1-ro‘yxat, 24-ish, 58-59-varaqlar.
15. O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 3-16-varaqlar.
16. O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 3-16-varaqlar.
17. O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 6-8-varaqlar.





18. О‘зР МДА, Р-40-фond, 1-ро‘yxat, 303-yig‘ma jild, 18-varaq.
19. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 210-215.
20. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.
21. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРФИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).
22. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
23. Ruziboev Dilshod A'Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).
24. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.
25. Jalilov B. N. SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA’SIR KO’RSATUVCHI OMILLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.
26. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).
27. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙГОНИШ ДАВРИ ВА ҒАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rtta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).

